# XALQ DEPUTATLARI QASHQADARYO VILOYATI KENGASHINING
# Q A R O R I

2025-yil 29-dekabr VII-20-218-4-0-K/25 Qashqadaryo viloyati

## Qashqadaryo viloyatining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 27- va 99-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2025-yil 20-oktabrdagi 02-1518-sonli hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 25-dekabrdagi 01/57-1-29242-sonli xatlarini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari viloyat Kengashi

**QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni (keyingi o‘rinlarda Qonun deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur Qonunga muvofiq, Qashqadaryo viloyati mahalliy budjetining 2026-yilgi daromadlari **5 899.0 mlrd.so‘m** va xarajatlari **7 168.7 mlrd.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar **1 269.7 mlrd.so‘m** miqdorida, shundan aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan transfertlar **344.8 mlrd.so‘m** miqdorida tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Quyidagilar:

Qashqadaryo viloyatini 2025-yil uchun rivojlantirishning makroiqtisodiy prognoz ko‘rsatkichlari **1-ilova**ga;

Qashqadaryo viloyatining viloyat budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **2-ilova**ga;

viloyatning viloyat budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **3-ilova**ga;

2026-yil uchun viloyatning viloyat budjeti hamda tumanlar va shaharlar budjetlariga tartibga soluvchi daromadlardan ajratmalarning normativlari **4-ilova**ga;

*Bunda, mazkur qaror qabul qilingandan so‘ng bir kun muddatda tartibga soluvchi daromadlardan ajratmalarning normativlari bo‘yicha viloyatning viloyat budjeti bilan tumanlar va shaharlar budjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda “Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimiga” Qashqadaryo viloyati g‘aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan kiritilishi belgilab qo‘yilsin.*

4. Tumanlar va shaharlar budjetlarining 2026-yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi **5-ilova**ga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5. Viloyatning viloyat budjeti shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining 2026-yilda yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **12756.5 mln.so‘m** etib hamda 2026-yil uchun tumanlar va shaharlar budjetlari shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **6-ilova**ga muvofiq belgilansin.

6. Viloyatning viloyat budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **37.3 mlrd.so‘m** miqdorida belgilansin.

2026-yil uchun Qashqadaryo viloyatning viloyat budjeti, tumanlar va shaharlar budjetlarining zaxira jamg‘armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining (bundan tumanlar va shaharlar budjetlarining jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga doir mablag‘lari mustasno) kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantiriladi.

Bunda tumanlar va shaharlar budjetlarining zaxira jamg‘armalari miqdori oldingi yildagi hajmidan kam bo‘lmagan miqdorda shakllantirilishi hamda qo‘shimcha mablag‘larni shakllantirish viloyatning viloyat budjeti zaxira jamg‘armalari mablag‘larini kamaytirish hisobidan amalga oshirilganligi inobatga olinsin.

7. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar **7-ilovaga;**

jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 $m^2$ uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar **8-ilovaga;**

ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 $m^2$ uchun mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymatga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi koeffitsiyentlar **9-ilovaga;**

2026-yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari **10-ilovaga;**

2026-yil uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar uchun yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha Soliq kodeksi bilan o‘rnatiladigan soliq stavkasiga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori **11-ilovaga;**

jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i bo‘yicha Soliq kodeksi bilan o‘rnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori **12-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari mahalliy budjet prognozlarini inobatga olib, mazkur qarorning 7- va 8-ilovalariga asosan qo‘llaniladigan koeffitsiyentlarga nisbatan tegishli hududda joylashgan daha, mavze, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 miqdorda kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni belgilash huquqiga ega ekanligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PQ-387-sonli qaroriga muvofiq viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi:

-respublika budjetidan Qashqadaryo viloyatining viloyat budjetiga o‘tkazib beriladigan daromad prognozining oshirib bajarilgan qismidan 50 foizini 2025-yil 1-dekabr holatiga statistika organlaridan olingan tuman (shahar)lar aholisining jami viloyat aholisi ulushiga muvofiq tuman (shahar)lar budjetlariga belgilangan muddatlarda o‘tkazish;

-dehqon bozorlari, ixtisoslashtirilgan va buyum bozorlaridan tushgan soliqlar bo‘yicha viloyat budjetiga o‘tkazilgan mablag‘larni ushbu sohadagi

hamda mahallalarda infratuzulmani yaxshilash uchun mazkur bozorlar joylashgan tuman (shahar)lar budjetlariga to‘liq o‘tkazilishini ta’minlasin.

9. Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari - viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (A.Qodirov), viloyat soliq boshqarmasi (S.Eshmatov) tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

10. Tumanlar va shaharlar hokimliklari, hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar 2026-yil uchun ajratilayotgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish, budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash hamda budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligigaalohida e’tibor qaratsin.

11. Viloyat soliq boshqarmasi (S.Eshmatov) hududiy soliq organlari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlardan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o‘rnatish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali va muntazam tashkil etib borish vazifalari yuklatilsin.

12. Majburiy ijro byurosi Qashqadaryo viloyat boshqarmasi (O.Poyonov), viloyat soliq boshqarmasi (S.Eshmatov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsinlar hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

13. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Qashqadaryo viloyat hududiy boshqarmasi (A.Rustamov) Davlat mulkidan samarali foydalanishni tashkil etish

markazining Qashqadaryo viloyat hududiy boshqarmasi (S.Toshev) bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo‘yicha doimiy ravishda xatlov ishlarini tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra viloyatda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari ro‘yxatini shakllantirish, ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash vazifasi yuklatilsin.

14. Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (F.Siddiqov) va viloyat soliq boshqarmasi (S.Eshmatov) tuman va shahar hokimlari bilan birgalikda viloyatda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

15. Viloyat ichki ishlar boshqarmasi (A.Ismoilov), adliya boshqarmasi (S.Nuriyev) viloyatda budjetga hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida to‘liq budjetga undirish choralarini ko‘rib borsinlar.

16. Xalq deputatlari hududiy Kengashlar hamda tuman (shahar) hokimlari O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksining 27- va 28-moddalarida belgilangan budjet sohasidagi vakolatlaridan kelib chiqib, budjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga tushumlar to‘liq va o‘z vaqtida tushishi hamda budjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan nazorat o‘rnatishi tavsiya etilsin.

17. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari Qashqadaryo viloyat Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

18. Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqini himoya qilish qo‘mitasi Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasi (S.Sarikov) tumanlar va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda tashqi reklama obyektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama obyektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

19. O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi Huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish Departamentining Davlat moliyaviy nazorati Inspeksiyasi Qashqadaryo viloyati boshqarmasi (N.Ismonov) budjetdan ajratilgan mablag‘larni maqsadli ishlatilishini nazorat qilish va amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan har chorakda xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyalarida axborot berib borish vazifalari yuklatilsin.

20. Viloyat hokimligi axborot xizmati (A.Sodiqov), Davlat soliq boshqarmasi (S.Eshmatov), iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (A.Berdiyev) bilan birgalikda viloyat teleradiokompaniyasi (J.To‘ychiyev) hamda viloyatdagi boshqa ommaviy axborot vositalarida, hokimlik muassisligidagi gazetalarda Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni e’lon qilinishi hamda hokimliklarning rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishini tashkil etsin.

21. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

22. Xalq deputtlari Qashqadaryo viloyat Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi "Qashqadaryo viloyatining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash toʻgʻrisida"gi VII-5-035-4-0-K/24-son qarori 2026-yil 1-yanvardan oʻz kuchini yoʻqotgan deb hisoblansin.

23. Ushbu qaror rasmiy eʼlon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

24. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirirsh va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi O.Ravshanov hamda viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha

birinchi o‘rinbosari - viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi A.Qodirov zimmasiga yuklatilsin.

**Kengash raisi** **XUSHMURODOVA ISMIGUL BERDIMURODOVNA**

Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-20-218-4-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Qashqadaryo viloyatining 2026-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognoz ko‘rsatkichlari hamda 2027-2028-yilga mo‘ljallari**

| T/r | Ko‘rsatkichlar | 2026-yil uchun prognoz | Mo‘ljal | |
|---|---|---|---|---|
| | | | 2027-yil | 2028-yil |
| 1. | Yalpi hududiy mahsulot, mlrd.so‘m | 106 895,7 | 121 783,5 | 137 916,7 |
| 2. | Yalpi hududiy mahsulotning o‘sish sur’ati, foizda | 106,1 | 106,0 | 106,0 |
| 3. | Iste’mol narxlari indeksi, dekabrda avvalgi yil dekabr oyiga nisbatan, foizda | 108,6 | 108,0 | 108,0 |
| 4. | Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, foizda | 107,2 | 107,5 | 107,8 |
| 5. | Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, foizda | 104,5 | 104,4 | 104,4 |
| 6. | Chakana tovar aylanmasining o‘sish sur’ati, foizda | 108,8 | 109,0 | 109,1 |

Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-20-218-4-0-K/25 -son qaroriga
2-ilova

**Qashqadaryo viloyatining viloyat mahalliy budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko'rsatkichlari**

ming so'mda

| T/R | Daromad turlari | Mahalliy reja |
|---|---|---|
| 1 | Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i | 271 327 660,0 |
| 2 | Aylanmadan olinadigan soliq | 0,0 |
| 3 | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i | 2 081 005 512,0 |
| 4 | Qo'shilgan qiymat solig'i | 192 820 300,0 |
| 5 | Aksiz solig'i, jami | 292 550 921,0 |
| | *shu jumladan:* | |
| | *- alkogol mahsulotlaridan soliq* | *35 176 200,0* |
| | *- benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiyasidan soliq* | *257 374 721,0* |
| 6 | Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | 302 128 040,0 |
| 7 | Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | 0,0 |
| 8 | Yuridik shaxslar yer solig'i | 221 145 274,0 |
| 9 | Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i | 0,0 |
| 10 | Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari) | 0,0 |
| 11 | Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq | 0,0 |
| 12 | Davlat boji | 139 772 150,0 |
| 13 | Jarimalar | 123 802 461,0 |
| 14 | Ijara to'lovi | 0,0 |
| 15 | Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad | 541 000,0 |
| 16 | Yig'imlar | 54 751 015,0 |
| 17 | Xususiylashtirish | 0,0 |
| 18 | Boshqalar | 0,0 |
| **JAMI** | | **3 679 844 333,0** |
| 19 | Tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar | 1 269 728 200,0 |

| | | |
|---|---|---|
| | *shundan, tamaki mahsulotlari uchun aksiz solig'idan* | *344 765 000,0* |
| **HAMMASI** | | **4 949 572 533,0** |

Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-20-218-4-0-K/25 -son qaroriga
3-ilova

**Viloyatning viloyat budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari**

ming so‘m

| T/r | Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi | Cheklangan miqdor |
|---|---|---|
| | | |
| | **Xarajatlar miqdori, jami** | **4 949 572 533** |
| | shu jumladan: | |
| | **joriy xarajatlar** | **4 528 528 389** |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | 421 044 144 |
| | Tuman va shahar mahalliy budjetlariga tartibga soluvchi transfertlar | |
| 1 | **Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi** | **552 841 462** |
| | shu jumladan: | |
| | **joriy xarajatlar** | **241 886 368** |
| | shundan: | |
| | "Yoshlik" sport markazi xarajatlari | |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | 310 955 094 |
| 2 | **Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar hududiy boshqarmasi** | **381 418 750** |
| | shu jumladan: | |
| | **joriy xarajatlar** | **381 418 750** |
| | shundan: | |
| | Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasini saqlash xarajatlari | 1 227 779 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| 3 | **Sog‘liqni saqlash boshqarmasi** | **250 078 160** |
| | shu jumladan: | |
| | **joriy xarajatlar** | **164 778 160** |
| | shundan: | |
| | Viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi markaziy apparati | 9 494 933 |

| | | |
|---|---|---|
| | Respublika o‘rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi filiali | 2 873 178 |
| | Bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi | 2 825 152 |
| | Sog‘likni saqlash boshqarmasi kutubxonasi | |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | 85 300 000 |
| **4** | **Madaniyat boshqarmasi** | **107 118 824** |
| | shu jumladan: | |
| | **joriy xarajatlar** | **107 118 824** |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **5** | **Ma’naviyat va ma’rifat markazi** | **4 212 829** |
| | shu jumladan: | |
| | **joriy xarajatlar** | **4 212 829** |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **6** | **Sport boshqarmasi** | **84 079 132** |
| | shu jumladan: | |
| | **joriy xarajatlar** | **84 079 132** |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **7** | **Yoshlar ishlari agentligining hududiy boshqarmasi** | **3 522 120** |
| | shu jumladan: | |
| | **joriy xarajatlar** | **3 522 120** |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **8** | **Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi** | **12 149 996** |
| | shu jumladan: | |
| | **joriy xarajatlar** | **12 149 996** |
| | **shundan:** | |
| | Issiqlik ta’minoti tizimi tashkilotlari xarajatlari | |
| | Ko‘p kvartirali uylardagi lift uskunalarini ta’mirlash va yangilash xarajatli | |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **9** | **Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi** | **58 509 514** |
| | shu jumladan: | |
| | **joriy xarajatlar** | **58 509 514** |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **10** | **Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi** | **160 285 503** |
| | shu jumladan: | |
| | **joriy xarajatlar** | **151 185 503** |
| | shundan: | |

| | | |
|---|---|---|
| | Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash | 45 942 380 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar | 9 100 000 |
| **11** | **Transport boshqarmasi** | **1 936 608** |
| | shu jumladan: | |
| | **joriy xarajatlar** | **1 936 608** |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar | |
| **12** | **Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi** | **48 872 838** |
| | shu jumladan: | |
| | **joriy xarajatlar** | **48 872 838** |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar | |
| **13** | **Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi** | **2 837 764 460** |
| | shu jumladan: | |
| | **joriy xarajatlar** | **2 837 764 460** |
| | shundan: | |
| | Davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari | 3 500 000 |
| | Advokatlik xizmatlari xarajatlari | 2 000 000 |
| | Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasini saqlash xarajatlari | 13 951 293 |
| | Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hududiy boshqarmasini saqlash xarajatlari | 15 197 867 |
| | G'aznachilik xizmati qo'mitasining hududiy boshqarmasi | 9 357 817 |
| | Kadastr agentligi Qashqadaryo viloyati boshqarmasini saqlash xarajatlari | 3 026 218 |
| | Davlat qarzlarini (asosiy qarz) so'ndirish bo'yicha xarajatlar | |
| | Xalqaro moliyaviy institutlardan O'zbekiston Respublikasi kafolati asosida olingan kreditlar bo'yicha to'lovlar | |
| | Davlat ichki qarziga xizmat ko'rsatish bo'yicha boshqa asosiy to'lovlar | |
| | Xalqaro moliyaviy tashkilotlardan O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida olingan kreditlar bo'yicha asosiy to'lovlar | |
| | Issiqlik ta'minoti xizmati uchun pasaytirilgan tariflarni qo'llash natijasida yuzaga keladigan zararni qoplash xarajatlari (subsidiya) | 691 168 |

| | | |
|---|---|---|
| | Tibbiy sug‘urta jamg‘armasiga o‘tkaziladigan transfertlar | 2 789 940 097 |
| | Tuman va shaxar mahalliy budjetlariga tartibga soluvchi transfertlar | |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **14** | **Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish boshqarmasi** | **1 944 743** |
| | shu jumladan: | |
| | **joriy xarajatlar** | **1 944 743** |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **15** | **Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hududiy boshqarmasi** | **1 374 795** |
| | shu jumladan: | |
| | **joriy xarajatlar** | **1 374 795** |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **16** | **Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi** | **12 353 460** |
| | shu jumladan: | |
| | **joriy xarajatlar** | **12 353 460** |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **17** | **Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi** | **9 891 521** |
| | shu jumladan: | |
| | **joriy xarajatlar** | **9 891 521** |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **18** | **Adliya boshqarmasi** | **15 578 736** |
| | shu jumladan: | |
| | **joriy xarajatlar** | **15 578 736** |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **19** | **Soliq boshqarmasi** | **106 755 314** |
| | shu jumladan: | |
| | **joriy xarajatlar** | **106 755 314** |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **20** | **Hokimiyat** | **229 344 747** |
| | shu jumladan: | |
| | **joriy xarajatlar** | **213 655 697** |
| | shundan: | |
| | Hokimlik ijtimoiy moslashish markazi bo‘limlari | 220 405 |

| | | |
|---|---|---|
| | Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish o‘quv kursi | 490 204 |
| | Zaxira jamg‘armasi | 37 284 323 |
| | Davlat qarzlarini (asosiy qarz) so‘ndirish bo‘yicha xarajatlar | |
| | Xalqaro moliyaviy institutlardan O‘zbekiston Respublikasi kafolati asosida olingan kreditlar bo‘yicha to‘lovlar | 24 663 819 |
| | Davlat ichki qarziga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha boshqa asosiy to‘lovlar | 44 700 000 |
| | O‘zoq muddatli budjet ssudasi | |
| | Davlat budjetidan boshqa budjetdan tashqari davlat jamg‘armalariga beriladigan mablag‘lar | |
| | Xalqaro moliyaviy tashkilotlardan O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida olingan kreditlar bo‘yicha asosiy to‘lovlar | 75 194 401 |
| | Avtobus yo‘nalishlarini subsidiyalash | 900 000 |
| | Issiqlik ta’minoti tizimi tashkilotlari xarajatlari | |
| | Issiqlik ta’minoti xizmati uchun pasaytirilgan tariflarni qo‘llash natijasida yuzaga keladigan zararni qoplash xarajatlari (subsidiya) | |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | 15 689 050 |
| **21** | **Hokimiyat** (Obodonlashtirish boshqarmasi) | |
| | shu jumladan: | |
| | **joriy xarajatlar** | |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **22** | **Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)** | **23 204 439** |
| | shu jumladan: | |
| | **joriy xarajatlar** | **23 204 439** |
| | shundan: | |
| | Qabul uylarini saqlash xarajatlari | 10 656 094 |
| | Axborot-kutubxona markazlari | 3 671 329 |
| | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari | 8 877 016 |
| | Viloyati matbuot va axborot boshkarmasi | |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **23** | **Xalq deputatlari Kengashi kotibiyatini saqlash xarajatlari** | **9 750 933** |
| | shu jumladan:<br>joriy xarajatlar<br>shundan: | 9 750 933 |

| | | |
|---|---|---|
| | Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi<br>obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | 4 642 434 |
| **24** | **Agrosanoat majmui ustidan nazorat kilish inspeksiyasining hududiy viloyat boshkarmasi** | **11 129 977** |
| | shu jumladan:<br>joriy xarajatlar<br>obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | 11 129 977 |
| **25** | **Ichki ishlar boshqarmasi** | **8 583 632** |
| | shu jumladan: | |
| | **joriy xarajatlar** | **8 583 632** |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **26** | **Mudofaa ishlari boshqarmasi** | **3 732 757** |
| | shu jumladan: | |
| | **joriy xarajatlar** | **3 732 757** |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **27** | **Oila va xotin-qizlar qo‘mitasinining hududiy boshqramasi** | **7 540 434** |
| | shu jumladan: | |
| | **joriy xarajatlar** | **7 540 434** |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **28** | **Boshqa tashkilotlar** | **5 596 849** |
| | shu jumladan: | |
| | **joriy xarajatlar** | **5 596 849** |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |

Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-20-218-4-0-K/25 -son qaroriga
4-ilova

## 2026-yilda umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar hamda soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan ajratma me’yorlari

*foiz hisobida*

| T/r | Hududlar nomi | Qo‘shilgan qiymat solig‘i | | | | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i | | | | Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan | | | | Foyda solig‘i | | | | Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari) | | | | Pivo | | | | benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Tuman (shahar)lar budjetiga | | Viloyatning viloyat budjetiga | | Tuman (shahar)lar budjetiga | | Viloyatning viloyat budjetiga | | Tuman (shahar)lar budjetiga | | Viloyatning viloyat budjetiga | | Tuman (shahar)lar budjetiga | | Viloyatning viloyat budjetiga | | Tuman (shahar) lar budjetiga | | Viloyatning viloyat budjetiga | | Tuman (shahar)lar budjetiga | | Viloyatning viloyat budjetiga | | Tuman (shahar) lar budjetiga | | Viloyatning viloyat budjetiga | |
| | | MRI | DSB | MRI | DSB | MRI | DSB | MRI | DSB | MRI | DSB | MRI | DSB | MRI | DSB | MRI | DSB | MRI | DSB | MRI | DSB | MRI | DSB | MRI | DSB | MRI | DSB | MRI | DSB |
| 1 | Qarshi shahar | 0% | 5% | 100% | 95% | 0% | 5% | 100% | 95% | 100% | 100% | 0% | 0% | 0% | 5% | 100% | 95% | 0% | 0% | 100% | 100% | 0% | 0% | 100% | 100% | 0% | 9% | 100% | 91% |
| 2 | Qarshi tumani | 0% | 10% | 100% | 90% | 0% | 10% | 100% | 90% | 100% | 100% | 0% | 0% | 0% | 10% | 100% | 90% | 0% | 0% | 100% | 100% | 0% | 0% | 100% | 100% | 0% | 13% | 100% | 87% |
| 3 | Mirishkor tumani | 0% | 100% | 100% | 0% | 0% | 100% | 100% | 0% | 100% | 100% | 0% | 0% | 0% | 100% | 100% | 0% | 0% | 0% | 100% | 100% | 0% | 0% | 100% | 100% | 0% | 100% | 100% | 0% |
| 4 | G‘uzor tumani | 0% | 30% | 100% | 70% | 0% | 32% | 100% | 68% | 100% | 100% | 0% | 0% | 0% | 30% | 100% | 70% | 0% | 0% | 100% | 100% | 0% | 0% | 100% | 100% | 0% | 24% | 100% | 76% |
| 5 | Dehqonobod tumani | 0% | 80% | 100% | 20% | 0% | 87% | 100% | 13% | 100% | 100% | 0% | 0% | 0% | 80% | 100% | 20% | 0% | 0% | 100% | 100% | 0% | 0% | 100% | 100% | 0% | 78% | 100% | 22% |
| 6 | Qamashi tumani | 0% | 70% | 100% | 30% | 0% | 69% | 100% | 31% | 100% | 100% | 0% | 0% | 0% | 70% | 100% | 30% | 0% | 0% | 100% | 100% | 0% | 0% | 100% | 100% | 0% | 100% | 100% | 0% |
| 7 | Koson tumani | 0% | 60% | 100% | 40% | 0% | 65% | 100% | 35% | 100% | 100% | 0% | 0% | 0% | 60% | 100% | 40% | 0% | 0% | 100% | 100% | 0% | 0% | 100% | 100% | 0% | 36% | 100% | 64% |
| 8 | Kitob tumani | 0% | 20% | 100% | 80% | 0% | 27% | 100% | 73% | 100% | 100% | 0% | 0% | 0% | 10% | 100% | 90% | 0% | 0% | 100% | 100% | 0% | 0% | 100% | 100% | 0% | 31% | 100% | 69% |
| 9 | Muborak tumani | 0% | 20% | 100% | 80% | 0% | 23% | 100% | 77% | 100% | 100% | 0% | 0% | 0% | 20% | 100% | 80% | 0% | 0% | 100% | 100% | 0% | 0% | 100% | 100% | 0% | 18% | 100% | 82% |
| 10 | Nishon tumani | 0% | 10% | 100% | 90% | 0% | 5% | 100% | 95% | 100% | 100% | 0% | 0% | 0% | 8% | 100% | 92% | 0% | 0% | 100% | 100% | 0% | 0% | 100% | 100% | 0% | 20% | 100% | 80% |
| 11 | Kasbi tumani | 0% | 30% | 100% | 70% | 0% | 60% | 100% | 40% | 100% | 100% | 0% | 0% | 0% | 30% | 100% | 70% | 0% | 0% | 100% | 100% | 0% | 0% | 100% | 100% | 0% | 23% | 100% | 77% |
| 12 | Chiroqchi tumani | 0% | 66% | 100% | 34% | 0% | 69% | 100% | 31% | 100% | 100% | 0% | 0% | 0% | 66% | 100% | 34% | 0% | 0% | 100% | 100% | 0% | 0% | 100% | 100% | 0% | 63% | 100% | 37% |
| 13 | Shahrisabz tumani | 0% | 70% | 100% | 30% | 0% | 73% | 100% | 27% | 100% | 100% | 0% | 0% | 0% | 70% | 100% | 30% | 0% | 0% | 100% | 100% | 0% | 0% | 100% | 100% | 0% | 58% | 100% | 42% |

| | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
